



SIYOSIY MATN VA SIYOSIY TIL TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TAVSIFI

Ismatova Shaxnoza Axror qizi,
Qarshi davlat universiteti doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243820>

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy matn va siyosiy til tushunchalarining lingvistik tavsifi yoritiladi. Siyosiy matnning tarkibiy tuzilishi, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy tilning lingvistik va stilistik xususiyatlari, uning ritorik hamda manipulyativ vositalari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijasida siyosiy matn va siyosiy tilning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlanadi va ularning kommunikativ ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: siyosiy matn, siyosiy til, lingvistik tavsif, leksik-semantik xususiyatlar, sintaktik tuzilma, ritorik vositalar, manipulyativ usullar, kommunikativ ahamiyat.

Siyosiy kommunikatsiya insoniyat jamiyatida muhim rol o'ynaydi. Siyosiy terminlar siyosat va hokimiyatning muhim vositasi sifatida nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni axborot ta'siri orqali shakllantiradi. Siyosiy terminlar siyosiy axborot uzatilishini, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ideallari, me'yorlari va qadriyatlarini, shuningdek siyosiy e'tiqodlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Siyosat esa, o'z navbatida, til rivojlanishi va til munosabatlarining samarali omili sifatida xizmat qiladi. Siyosiy qarashlarni ifodalash, ijtimoiy guruhlar va ommani boshqarish hamda davlat siyosatini shakllantirish jarayonida siyosiy matn va siyosiy til asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy matn rasmiy hujjatlar, bayonotlar, ma'ruzalar, qonunlar va boshqa turli janrdagi nutqiy materiallarni o'z ichiga oladi. Siyosiy til esa ushbu matnlarning lingvistik ifodalash vositalarini belgilab beradigan kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy matn va siyosiy til o'zining lingvistik tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari, sintaktik tuzilishi hamda stilistik o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Ularning lingvistik tavsifini o'rganish siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshirish, siyosiy diskursdagi til vositalarining ta'sirini aniqlash hamda ularning pragmatik jihatlari tahlil qilish imkonini beradi.

Siyosiy lingvistikaga oid tadqiqotlar, asosan, siyosiy til, siyosiy matnlar va siyosiy muhokama kabi materiallarni o'rganishga asoslangan bo'lib, bu sohadagi ilmiy izlanishlar hozirgi kunga qadar yagona nazariy asos, metodologiya va terminologiya shakllanishiga imkon bermagan. Biroq, siyosiy lingvistikada tushunchaviy va terminologik minimum shakllanib, bu soha uchun zarur bo'lgan asosiy atamalar va tushunchalar aniq belgilangan. Siyosiy lingvistika asoslarini tizimli bayon qilishning hozirgi bosqichdagi qiyinchiliklari, bu sohadagi ilmiy ishlarning davomiy rivojlanishini taqozo etmoqda.



Siyosat tili yoki siyosiy tilning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u siyosatni amalga oshirish va siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu jihatidan, siyosat tili yuridik, ilmiy, falsafiy, tibbiyot va boshqa funktsional tildan farq qiladi. Biroq, siyosat tili umumiy til lug‘at tarkibi va tilning boshqa barcha qismlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Siyosat tili tibbiyot, texnika yoki huquq tili kabi aniq ajralib turmaydi, shuningdek, siyosat tili va umumiy til lug‘at tarkibi o‘rtasida doimiy o‘zaro almashuv yuz beradi. Siyosiy atamalar, so‘zlar va iboralar umumiy til lug‘at tarkibiga kirib, uning boyligiga aylanadi; aksincha, umumiy til lug‘at tarkibidagi ba’zi so‘zlar va iboralar siyosat tili tarkibiga o‘tadi.

Shu tariqa, siyosiy atamalar o‘zining terminologik xususiyatlarini yo‘qotishi mumkin, umumiy til lug‘at tarkibidagi so‘zlarga esa siyosiy ma’nolar beriladi. V. Shmidtning ta’kidlashicha, “yuqorida keltirilgan qarama-qarshi tendentsiyalar natijasida siyosiy til va umumiy til omonimlarining birgalikda mavjud bo‘lishi yuzaga keladi”. Siyosiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini yana quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin: birinchidan, siyosat jamiyatning turli sohalari va darajalari bilan o‘zaro munosabatga kirishadi, bu esa ko‘pincha bevosita siyosatga taalluqli bo‘lgan boshqa sohalarga nisbatan ko‘proq yuzaga keladi.

Siyosat tili jamiyatning barcha qatlamlariga mo‘ljallangan bo‘lib, siyosiy jarayonlar butun aholini qamrab oladi. Siyosat tilining o‘ziga xosligi shundaki, u siyosiy kurash, munozaralar, o‘z yo‘lini ishonchli tarzda ko‘rsatish va boshqa shu kabi holatlarda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, siyosat tilining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning kimga yo‘naltirilganligi va uni ishontirishga qaratilganligidir.

Siyosat tashqi va ichki siyosatga bo‘linadi, ichki siyosat esa bir qator bo‘limlarga, masalan, iqtisodiy siyosat, madaniy siyosat, ta’lim sohasidagi siyosat va boshqalarga ajratiladi. Shu bilan birga, siyosat tilining negizida, uning terminologiyasida quyidagi asosiy elementlar yotadi: a) barcha siyosat [ham ichki, ham tashqi siyosat] uchun umumiy bo‘lgan atamalar; b) tashqi va ichki siyosatga mansub alohida atamalar. Ichki siyosat o‘z navbatida turli tarmoqlarga bo‘linadi, shuning uchun, bu yerda ham, ichki siyosatga xos umumiy atamalar bilan birga, faqat bitta tarmoqqa xos atamalar ham ajratiladi.

Siyosat tili, shuningdek, jamiyatning turli sohalari va aholining turli qatlamlaridan o‘zlashtirilgan leksikani o‘z ichiga oladi. Ushbu leksika targ‘ibot va siyosiy tadbirlar mohiyatini izohlash, ommaga tanilish va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Siyosiy tilning milliy til tarkibida alohida belgilar quyi tizimi sifatida mavjudligi masalasi ilmiy nuqtai nazarda



munozarali hisoblanadi. Ba'zi olimlar siyosiy kommunikatsiyaning rus tilining mutlaqo maxsus variantida sodir bo'lishini va uni aynan "siyosiy til" deb atash kerakligini ta'kidlaydilar. Biroq, qarama-qarshi nuqtayi nazarga ega bo'lgan tadqiqotchilar siyosiy kommunikatsiyaning o'ziga xos til xususiyatlarini kam ahamiyatli va kam sonli deb hisoblaydilar, ular rus tilining grammatik va leksik me'yorlaridan chetga chiqmaydi.

Shu bilan birga, ilmiy nutq, rasmiy ish nutqi yoki kundalik so'zlashuvdagi o'ziga xos xususiyatlar siyosiy nutqdagilaridan kam emasligi ma'lum. Shunday qilib, "siyosiy til" atamasi, ilgari tilshunoslar tomonidan ishlatilgan "rasmiy ish tili", "nutqiy til" yoki "ilmiy til" atamalari bilan bir xil ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Buning natijasida, siyosiy til maxsus milliy til deb qaralmaydi, balki milliy rus, ingliz yoki boshqa tilning siyosat sohasiga xos variantidir. So'nggi yillarda, til atamasini noaniq ishlatmaslik maqsadida, ko'plab mutaxassislar "ilmiy nutq" yoki "rasmiy-amaliy nutq"ning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirishni afzal ko'rmoqdalar. Shuning uchun, siyosiy matnlarni tadqiq qilishda ko'pincha siyosiy nutq yoki siyosiy kommunikatsiyaning o'ziga xos jihatlari haqida gapirish afzal ko'riladi [6:256}.

Siyosiy tilning yuqori bosqichini rasmiy til tashkil etadi. Ushbu til tashqi siyosiy faoliyatda turli deklaratsiyalar, bayonotlar, memorandumlar, notalar va boshqa hujjatlarning, ichki siyosiy faoliyatda esa siyosiy dasturlar, dekretlar, qarorlar, farmonlar kabi huquqiy hujjatlarning ifodalovchi vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Rasmiy siyosiy til qat'iy tanlab olingan va sinovdan o'tgan atamalardan tashkil topib, hissiy jihatdan betaraf, shuningdek, asosan tinglovchilarning intellektual darajasiga mos ravishda shakllantiriladi.

Siyosiy tilning quyidagi darajasida muloqot tili joylashadi. Uning asosiy vazifasi ishtirokchilar o'rtasida kelishuvga erishish yoki umumiy manfaatlar ta'minlashdir. Diplomatik muloqotlar tili ushbu darajaga mansub bo'lib, nisbatan rasmiy bo'lmagan, atamalarda va shakllanishda esa moslashuvchanlikni o'zida aks ettiradi.

Siyosiy til tuzilmasining yana bir darajasi siyosiy tarbiya tili sifatida qaraladi. Uning asosiy maqsadi me'yoriy tuzilmalarga erishish va fuqarolarda siyosiy yondashuvlarni shakllantirishdir. Ushbu til hissiylik, ifodalilik, moslashuvchanlik va dalil-isbotlarga tayanishi bilan ajralib turadi. Siyosiy tarbiya tili ta'lim sohasida va ommaviy kommunikatsiya vositalarida keng qo'llaniladi.

Siyosat tili tuzilmasining eng past darajasini siyosiy targ'ibot tili tashkil etadi. Bu til siyosiy nutqlar, partiyalarning fikr va baholarini o'zgartirish yoki aksincha, ularni mustahkamlash maqsadida targ'ibot jarayonlarida foydalaniladi. Siyosiy targ'ibot tili ko'p jihatdan siyosiy tarbiya tiliga o'xshash bo'lsa-da, u yanada kamroq



moslashuvchan va dalillarga to‘la bo‘lmaydi. Ushbu tilda maxsus siyosiy atamalar deyarli ishlatilmaydi, aksincha, qochirim, kesatiq, mubolag‘a kabi stilistik vositalar qo‘llaniladi. Siyosiy targ‘ibot tili ayniqsa, saylov kampaniyalarida keng tarqalgan.

Siyosiy matn — bu ma‘naviy aloqa orqali ifodalangan va bir-biri bilan uzviy bog‘langan so‘zlar [jumlar] ketma-ketligidan iborat bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari uzviylik va yaxlitlikdir. Siyosiy matn turli janrlarga mansub bo‘lishi mumkin: u og‘zaki shaklda [masalan, miting yoki parlament munozaralaridagi chiqishlar, partiya qurultoyidagi ma‘ruzalar, siyosiy yetakchining teleko‘rsatuvlardagi nutqlari va boshqalar] va yozma shaklda [gazetadagi bosh maqolalar yoki tahliliy maqolalar, varaqalar, siyosiy partiya dasturlari va boshqa hujjatlar] bo‘lishi mumkin.

Siyosiy matnlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishda, dastlab, prezidentlarning siyosiy mafkurasi uning nutqi va asarlarida qanday vositalar orqali aks etishi hamda uning so‘z tanlash mahorati tadqiqiga e‘tibor qaratilgan. Siyosiy nutq va matnlar tadqiqi bo‘yicha dastlabki nazariy qarashlar M.V.Gavrilova, Yu.S.Vashtalova, A.Yu.Mironina, O.N.Parshina, O.A.Guseva, V.Apanasik, O.V.Altman, E.V.Gorina, Y.S.Alishevalarning nomzodlik ishlarida mavjud. Ushbu tadqiqotlar doirasida prezidentlar siyosiy lingvist sifatida tahlil qilinib, ularning nutq jamlanmalarining psixolingvistik, pragmalingvistik va lingvomadaniy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Siyosiy matnning filologik tahlilida ijtimoiy-siyosiy leksemalarning semantikasi, shuningdek, semantik markaz tushunchasining prezident nutqidagi o‘zgaruvchanligi ham alohida e‘tiborga olingan. Masalan, E.I. Sheygal va A.M. Pogorelko XX-XXI asrlarda Amerika va Rossiya boshqaruv apparatida ishtirok etgan prezidentlarning nutqlarida milliy o‘ziga xoslik va siyosiy tushunchalarning mazmunini, shuningdek, undagi yadro vazifasini bajaruvchi leksemalarni tahlil qilish orqali siyosiy matnning leksik tarkibining semantik strukturasi argumentatsiya jarayonidagi asosiy vosita sifatida ko‘rsatilgan.

O‘zbek tilshunosligida siyosiy manbalarni lisoniy tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar hozircha mavjud bo‘lmasa-da, bu sohaning dastlabki bosqichlari leksikografik mazmundagi tadqiqotlar shaklida namoyon bo‘lgan. Xususan, H. Dadaboyev, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, Sh. Ko‘chimov va Z. Mirahmedovalar tomonidan tuzilgan "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati", shuningdek, Z. Isoqova va A. To‘raxo‘jayevaning nomzodlik dissertatsiyalari bu sohadagi ilk ilmiy ishlar sifatida alohida e‘tiborga loyiqdir.

Siyosiy matnlar kundalik hayotimizda turli axborot manbalaridan doimiy ravishda tarqatilib, bizni har tomonlama o‘rab turadi. Biz ro‘znoma, jurnal va



yangiliklar saytlarini o‘qish, televizor ko‘rish va radio eshitish orqali turli siyosiy axborotlarni qabul qilamiz. Ommaviy axborot vositalari har kuni mamlakatimiz va boshqa davlatlarning siyosiy hayotidagi muhim voqealarni yoritadi. Siyosiy matnlar qatoriga davlat, partiya va jamoat arboblarning nutqlari, xalqaro va hukumat tashkilotlarining nashrlari, tinchlikni ta‘minlash, xalqaro ahvolning keskinligini yumshatish, qurollanishni qisqartirish va milliy ozodlik harakatlariga bag‘ishlangan maqolalar ham kiradi.

Siyosiy matnlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular nafaqat ma‘lum bir voqea yoki masala to‘g‘risida axborotni taqdim etadi, balki boshqa turli funksiyalarni ham bajaradi. Siyosiy matn avvalambor, mazkur masala yuzasidan aniq bir nuqtai nazarni ifodalovchi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida ishlab chiqilgan bir butunlik sifatida mavjud bo‘ladi [2:8].

Siyosiy matnlar tili ma‘lum diplomatik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan va alohida til belgilariga ega bo‘lgan kontekstni tashkil etadi. Shuning uchun, ushbu turdagi matnlarning filologik tahlilini amalga oshirish tilshunoslik sohasidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Siyosiy matnlardagi leksemalarning semantik hajmining chuqurligi, nominatsiyasining aniqligi va taqribiyliigi semantik tadqiqotlar asosida olinadigan axborot hajmini sezilarli darajada oshiradi [4:275].

Siyosiy nutq va matnlar, siyosiy hokimiyatga xos bo‘lib, boshqaruv maqsadiga yo‘naltirilgan matnlar sifatida, ularning semantik strukturasi tadqiq etish siyosiy matnlarni boshqa matn turlaridan farqlash imkoniyatini yaratadi. Matnning bunday semantik va funksional strukturasi tilshunoslar umumiy ravishda “siyosiy ritorika” deb ataydilar. “Siyosiy ritorika” atamasi faqat siyosiy matnning leksik tarkibiga tegishli bo‘lib, odatda, ijtimoiy-siyosiy terminlar asosida shakllanadi. Bunday siyosiy birliklar mavjudki, ular faqat bog‘liq semantik birliklar asosida siyosiy matnda ifodalangan holda, ijtimoiy-siyosiy tushuncha hamda fikrni aks ettirishga xizmat qiladi. Bu haqida R.Usmonov[5:48] maqolalarining birida Tojikiston siyosatchilari nutqida qo‘llangan birliklarning semantik hamda uslubiy jihatlarini tadqiq etish orqali ma‘lum leksik birlik har bir siyosiy mazmundagi nutqiy sharoitda turli semantik strukturaga ega bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Ko‘rib chiqilayotgan matn turining mazmuniy belgisi shundaki, ularda partiyalar, boshqa jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyati organlari, jamoat va davlat yetakchilari hamda faollarining jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlari aks ettiriladi. Siyosiy matnning xarakterli maqsadi, uning muayyan g‘oyalarni targ‘ib qilish orqali siyosiy vaziyatga ta‘sir ko‘rsatish, mamlakat fuqarolariga hissiy ta‘sir o‘tkazish va ularni siyosiy harakatlarga



undashdir. Boshqacha aytganda, siyosiy matnlar siyosiy hokimiyatni taqsimlash va undan foydalanish masalalariga bevosita yoki bilvosita yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ko‘pgina siyosiy matnlarda faktlar va fikrlar bayoni mavjud bo‘lishi mumkin, ammo bu ma‘lumotlar adresatni ishontirish uchun dalil bo‘lib xizmat qilishi va oxir-oqibat uning siyosiy pozitsiyasiga ta‘sir ko‘rsatishi kerak. Siyosiy matnlarning to‘g‘ri tahlil qilinishi uchun kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Kontekst, tahlil qilish uchun tanlangan birlikni [masalan, so‘zni] o‘z ichiga olgan va bu birlikning ma‘nosini aniqlash uchun yetarli bo‘lgan matn parchasidir. Aniqlanayotgan birlikning o‘zi kontekst tarkibiga kirmaydi. Ba‘zi hollarda bir jumla kifoya qilishi mumkin, boshqalarda esa matnning kengroq parchasini yoki butun matnni hisobga olish zarur bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tor va keng kontekst farqlanadi. Ba‘zi mutaxassislar siyosiy kontekst, vaziyatli kontekst va ekstralingvistik kontekst kabi atamalarni keng tushunib ishlatadilar, ammo siyosiy diskurs va siyosiy hikoya kabi atamalarni ishlatish yanada aniqroq va mos keladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki siyosiy matn va siyosiy til o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning lingvistik tavsifini o‘rganish siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini tushunishga yordam beradi. Siyosiy til manipulyativ va ritorik vositalarga boy bo‘lib, auditoriyaga ta‘sir o‘tkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, siyosiy matn va siyosiy tilni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va pragmatik jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Будаев Э. В., Чудинов А. П. Современная политическая лингвистика. Екатеринбург: УрГПУ, 2006. — 252 с.
2. Siddiqov Z.O‘zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasi va siyosiy terminologiyasi.2022
3. Попова Т.Г. Категория информативной насыщенности юридического дискурса // Профессионально ориентированное обучение иностранному языку и переводу в вузе. Материалы международной конференции. – Москва, 2011. – С. 275. [273-285]
5. Усмонов Р.А. Политический дискурс в языке культуры: содержание и функции // Язык. Словесность. Культура. 2018. Том 8. № 4-5. – С. 48-60
7. Чудинов А. П. Политическая лингвистика: Учеб. пособие / А. П. Чудинов; Изд-ва «Флинта», «Наука». — Москва. 2006. — 31-42 с.
8. Mamatkulova R. So‘z, termin va atama tushunchalari, ularning o‘ziga xos semantik xususiyatlari.2023